

AJRASHGAN OILA VAKILLARI O'RTASIDA NIKOHDAN AJRALISH SABABLARINING ILMIY TAHLILI VA AJRALISH DARAJASINI KAMAYTIRISH CHORALARI

Rustamov Jaxongir Ikrom o'g'li

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i, sotsiologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda nikohdan ajralish holatlarining ko'payish tendensiyasi, ularning asosiy sabablari hamda oilaga va jamiyatga ko'rsatadigan oqibatlarini ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida 2025 yil boshida mamlakatning 9 hududida ajrashgan oilalar vakillaridan iborat 311 nafar respondent bilan so'rov o'tkazilib, ajrimga olib keluvchi omillar statistik va sotsiologik usullar yordamida o'rganildi. Maqolada olingan natijalar avvalgi tadqiqotlar va xorijiy tajribalar bilan taqqoslanib, nikoh barqarorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: nikohdan ajralish, ajrim sabablari, oilaviy nizolar, psixologik oqibatlar, ijtimoiy ta'sir, iqtisodiy omillar, sotsiologik tadqiqot, oilaga tayyorgarlik, ajrimni oldini olish, tavsiyalar.

Abstract. This article presents a scholarly analysis of the rising trend of divorce in Uzbekistan, its primary causes, and its impacts on families and society. A survey of 311 divorcees was conducted across nine regions in early 2025, and the drivers of marital dissolution were examined using statistical and sociological methods. The results are compared with prior studies and international experience, and a set of integrated measures is proposed to strengthen marital stability.

Keywords: divorce, causes of divorce, family conflict, psychological consequences, social impact, economic factors, sociological research, marital preparedness, divorce prevention, recommendations.

Аннотация. В статье представлен научный анализ роста числа разводов в Узбекистане, их основных причин и последствий для семьи и общества. В начале 2025 года был проведён опрос 311 разведённых респондентов в девяти регионах страны; факторы распада брака изучались с использованием статистических и социологических методов. Результаты сопоставлены с предыдущими исследованиями и зарубежным опытом; предложен комплекс мер по повышению стабильности брака.



Ключевые слова: развод, причины развода, семейные конфликты, психологические последствия, социальное воздействие, экономические факторы, социологическое исследование, готовность к браку, профилактика разводов, рекомендации.

Kirish

Oila – jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo‘lib, uning mustahkamligi davlat barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Biroq so‘nggi yillarda O‘zbekistonda nikohdan ajralishlar soni sezilarli darajada oshib, oilalarning barqarorligiga putur yetkazmoqda. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda mamlakat bo‘yicha 45 135 ta nikoh bekor qilingan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021 yilga nisbatan 5 786 taga (14,7 foizga) ko‘pdir¹. Garchi 2024 yilda ajralishlar soni o‘tgan yilga nisbatan biroz – 8,3 foizga kamaygan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya so‘nggi o‘n yillikda ajrimlar sezilarli ko‘payganini ko‘rsatadi. Bu holat oila instituti inqirozi alomati bo‘lib, jamiyat hayotining turli sohalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda va ajralish sabablarini chuqur tahlil qilish zarurligini anglatadi.

Nikohdan ajralish hodisasi ko‘p qirrali ijtimoiy-huquqiy muammo sanaladi. Ajrim jarayonida mol-mulkni bo‘lish, aliment to‘lovi, farzandlar tarbiyasi va manfaatlarini himoya qilish, sud yoki FHDYo (Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari) orqali rasmiylashtirish kabi huquqiy jihatlar kompleks yondashuvni talab etadi. Ajralishlarning jamiyat uchun ahamiyati shundaki, nikohning buzilishi nafaqat er-xotin va farzandlar uchun ruhiy zarba, balki ayollarning iqtisodiy himoyasizligi, bolalarning ijtimoiy moslashuvi kabi kengroq oqibatlarga olib keladi. Misol uchun, ajralgan oilalarda bolalar ko‘pincha yolg‘iz ota yoki onaning qaramog‘ida qolib, bu ularning psixologik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Shu bois, ajrimlarning salbiy oqibatlarini yumshatish va oilalarni mustahkamlash dolzarb ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi².

Mavzuning dolzarbligini yana shundan ko‘rish mumkinki, respublikada ajralishlarning ortib borishi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Oilaviy ajrimlar ko‘payaётgan bir paytda, ularga nisbatan jamoatchilik munosabati va stigma ham hali saqlanib qolgan (ajrimga uchragan shaxslar ko‘pincha jamiyatda turli bosimlarga duch keladi). Shu sababli, nikohdan ajralish hodisasini chuqur o‘rganish, ajrimlarning sabab va oqibatlarini aniqlash hamda ularni kamaytirish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. – Toshkent, 2024.

² Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hisobotlari. – Toshkent, 2024.



strategiyasini ishlab chiqish hozirgi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ham nikohdan ajralish jarayonining asosiy sabablarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning oila instituti va jamiyatga ta'sirini baholash hamda ajralish darajasini kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir³.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda sotsiologik so'rov va tahlil usullariga tayangan holda nikohdan ajralishning sabablari va oqibatlari o'rganildi. Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekistonning turli hududlarida ajrashgan oila vakillari tanlab olindi. Respondentlar maqsadli tanlash usuli orqali jalb qilinib, birlamchi ma'lumotlar yig'ish uchun intervyu shaklidagi so'rovnoma tuzildi. Ya'ni, ajrashgan erkak va ayollardan iborat guruh bilan yuzma-yuz suhbat tarzidagi so'rov o'tkazilib, ularning shaxsiy tajribasi va qarashlari haqida ma'lumot olindi. Shuningdek, tadqiqot davomida ajrimlarga doir statistik hujjatlar va rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi.

So'rovnoma 2025 yilning aprel–may oylarida respublikaning 9 xil hududida o'tkazildi. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida yashovchi, nikohi bekor qilingan fuqarolar tadqiqotga jalb etildi. Jami 311 nafar respondent ishtirok etdi, ulardan 247 nafari (78,9%) ayollar, 66 nafari (21,1%) erkaklardir. Respondentlarning yosh tarkibi nisbatan yosh oilalar ustunligini ko'rsatadi: so'rovnomada qatnashganlarning 15,1 foizi 18–25 yoshgacha bo'lgan, eng katta ulush 26–35 yosh oralig'iga to'g'ri kelib 38,1 foizni tashkil etdi, 36–45 yoshdagilar 29,4% bo'ldi, 46–55 yoshlilar 12,5% va 56 yoshdan kattalar 4,8% ni tashkil etdi. Respondentlarning yarmidan ozrog'i shaharlik (jami guruhning 53,9%), qolgani esa qishloq hududida yashovchi (46,1%) fuqarolar edi. Shuningdek, ulardan har yettinchi kishi (13,4%) voyaga yetmagan (18 yoshdan kichik) yoshda turmush qurganini bildirgan, bu esa ayrim oilalarning juda erta yoshda shakllanganini ko'rsatadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar kombinatsiyasi – statistik tahlil va sotsiologik intervyu – bizga ajralishlar muammosiga kompleks yondashuvda ma'lumot berdi. Statistik ma'lumotlar yordamida umumiy tendensiyalar va hududiy farqlar ochib berilgan bo'lsa, so'rov natijalari ajralish sabablarini chuqurroq, bevosita respondentlar nigohidan anglash imkonini berdi.

Asosiy qism. So'nggi yillarda nikohdan ajralishlar soni respublika bo'yicha yuqori sur'atda oshgan. 2021–2023 yillarda ajrimlar soni yilma-yil ortib bordi, 2024 yilga kelib esa biroz pasayish kuzatildi. Xususan, 2024 yilda O'zbekistonda 45 mingdan ortiq (45 135 ta) nikoh rasmiy ravishda bekor qilingan bo'lib, bu 2021 yilga

³ Mirziyoyev Sh.M. Oila qadriyatlarini mustahkamlashga doir ma'ruzalar to'plami. – Toshkent, 2023. – 56 b.



nisbatan qariyb 15 foiz ko'pdir. Har 1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan ajralishlar koeffitsiyenti ham 2021 yildagi 1,1 promilledan 2024 yilda 1,2 promillega oshdi. Hududlar kesimida ajrim darajasi Toshkent shahri (har 1000 aholiga 1,9%), Surxondaryo (1,6%) va Toshkent viloyati (1,5%)da eng yuqori ko'rsatkichga ega ekani qayd etildi⁴. Nikohlarning mustahkamligi ayniqsa shaharlarda pasaygan bo'lib, ayrim shahar va tumanlarda har 100 ta tuzilgan nikohning 30–35 tasigacha ajrim bilan yakunlanmoqda. Masalan, Sirdaryo viloyatidagi Shirin shahrida 2024 yilda har 100 ta nikohdan 36,4 tasi ajralish bilan tugagan, Chirchiq shahrida bu ko'rsatkich 35,0% ga, Toshkent shahri Mirobod tumanida 34,1% ga yetgan (ya'ni uch nikohdan biri ajrim bilan yakun topgan). Bu raqamlar ayrim urbanizatsiyalashgan hududlarda oilaviy barqarorlik keskin zaiflashganini ko'rsatadi(1.1-jadva).

Rasmiy statistik ma'lumotlar va respondentlar so'rovi ajrimlarning eng keng tarqalgan sabablari to'g'risida aniq tasavvur hosil qildi. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi ma'lumotlari asosida 2024 yilda respublika bo'yicha ajralishlarning 14,1 foizi turmush o'rtog'iga uchinchi shaxslarning (begona odamlarning yoki qarindoshlarning) aralashuvi tufayli sodir bo'lgan. Xuddi shunday ulush (11,7%) farzandsizlik sababiga ham to'g'ri kelgan, ya'ni befarzandlik ko'plab oilalarni buzayotgan muhim omil hisoblanadi. Yana 11,7% ajralishlarga nikohga kirayotgan yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi sabab bo'lgan (mas'uliyatni his qilmaslik, oila qurishga psixologik va huquqiy jihatdan tayyorgarlikning yetishmasligi kabi). Shuningdek, ajrimlarning 9,8 foizida er-xotin uzoq vaqt birga yashamay (masalan, mehnat migratsiyasi tufayli alohida yashash) yurgani ajralishga olib kelgani aniqlangan. Demak, iqtisodiy (farzandsizlik ham ko'pincha moliyaviy va tibbiy muammolar bilan bog'liq), ma'naviy (begona shaxs aralashuvi, xiyonat), psixologik (oilaga tayyor emaslik, nizolar) va boshqa omillar ajrimlarga turtki beruvchi asosiy sabablar sirasiga kiradi⁵.

Hududiy tahlil ayrim sabablarning muayyan viloyatlarda o'ta dolzarb ekanini ko'rsatdi. Masalan, turmush quruvchilarning oilaviy hayotga tayyor emasligi umumiy ajrimlarning 11,7 foizini tashkil etsa-da, Farg'ona viloyatida bunday sabab bilan ro'y bergan ajralishlar ulushi 29,6 foizga yetgan, ya'ni deyarli uchdan bir qism. Buxoro (4,7%), Namangan (5,4%) va Toshkent shahri (6,5%)da bu sabab nisbatan kam kuzatilgan bo'lsa-da, aynan Farg'onada juda yuqori ko'rsatkich qayd etilishi yosh

⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Demografik ko'rsatkichlar to'plami. – Toshkent, 2024.

⁵ Akramova F. Oila muammolari va ularning huquqiy yechimlari. – Toshkent: Lesson-press, 2021. – 124 b.



oilalardagi tayyorgarlik masalalariga e'tibor qaratish lozimligini bildiradi. Ajrimlarga olib kelgan begona shaxslar aralashuvi eng keng tarqalgan ikkinchi sabab bo'lib, Buxoro viloyatida ajralishlarning 34,1%iga, Farg'onada 35,1%iga aynan qarindosh yoki boshqa shaxslarning oilaviy nizolarga aralashuvi sabab bo'lgan. Bu holat oilaning ichki masalalariga tashqi ta'sir kuchli bo'lgan hududlar borligini ko'rsatadi.

1.1-Jadval.

T/r	Hududlar	Jami ajrimlar	Sabablari											
			Nikohlanuvchilarning oilaga tayyor emashligi	Ona-avayb yoki xavfij madaniyatining salbiy ta'siri	Hiyonat	Spiritualistik va g'iyohvand moddalar iste'moli	Farandasiylik	ta'rif va zo'ri ravonlik	Moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar	3-shaxs aralashuvi	uzoq vaqt bir-mla bo'lib	Chet elga chiqish maqsadida	Intizorli uy olish maqsadida	Boshqa sabablar
	JAMI	45 135	5 259	1 186	1 526	1 258	5 263	521	2 107	6 375	4 441	610	168	16 421
1	Qoraqalpog'iston R.	1 755	19	14	158	139	177	1	162	238	202	47	0	598
2	Andijon viloyati	4 781	477	127	136	96	308	81	419	818	771	73	30	1 445
3	Buxoro viloyati	2 329	109	0	44	3	430	31	49	794	83	0	0	786
4	Jizzax viloyati	1 696	211	19	112	62	301	42	44	120	161	8	13	603
5	Qashqadaryo viloyati	2 989	524	194	132	241	336	148	331	446	215	110	72	240
6	Navoiy viloyati	1 258	106	79	38	78	156	20	68	192	116	7	2	396
7	Namangan viloyati	4 123	223	41	144	29	786	42	65	262	561	31	24	1 915
8	Samarqand viloyati	4 599	661	127	102	106	330	9	258	170	223	67	0	2 546
9	Sirdaryo viloyati	1 505	120	43	54	45	106	28	65	105	84	24	8	823
10	Surxondaryo viloyati	2 893	248	45	48	129	516	13	182	417	202	45	0	1 048
11	Toshkent viloyati	4 570	480	244	229	133	521	13	216	551	510	1	0	1 672
12	Farg'ona viloyati	4 800	1 422	79	50	21	545	0	6	1 683	532	12	0	450
13	Xorazm viloyati	1 924	277	0	60	40	249	41	92	296	236	37	19	577
14	Toshkent shahri	5 913	382	174	219	136	502	52	150	283	545	148	0	3 322

O'zbekiston Respublikasida ajrim sabablari (2024 yil), birlik

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan



Zo‘ravonlik va tazyiq ham ajrimlarning jiddiy sababi sifatida qayd etilgan: masalan, Namangan viloyatida ajralishlarning 19,1 foizi, Buxoroda 18,5%, Jizzaxda 17,7% va Surxondaryoda 17,8% hollarda er-xotinlardan birining jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonligi tufayli bo‘lgani aniqlangan. Ushbu raqamlar oiladagi tazyiq va zo‘ravonlik masalasi qanchalik dolzarb ekanini va bunday vaziyatda ajralish ko‘pincha ayollar uchun muqarrar echim bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Respondentlarning sub‘ektiv fikrlari: O‘tkazilgan so‘rovnomada ajrimga olib kelgan omillar bo‘yicha respondentlar bir nechta muhim jihatlarni ta‘kidlashdi. Respondentlarning ko‘pchiligi ajralishga olib keluvchi ruhiy va ma‘naviy muammolarni sanab o‘tishgan. Xususan, sevgi va mehrning yo‘qolib ketishi (javoblarning 27% ulushi), er-xotin orasida o‘zaro hurmat va ishonchning yo‘qligi (14%) eng asosiy omillar sifatida zikr etildi. Shuningdek, xiyonat va nikohdan tashqari munosabatlar, rashk kabi holatlar jami respondentlarning 12% javobida tilga olingan bo‘lib, bu axloqiy buzilish omillarining salmog‘i yuqori ekanini bildiradi. Ayrim oilalarda uy yumushlarining adolatsiz taqsimlanishi ham jiddiy nizolarga sabab bo‘lib, 28% respondent uni muhim omil deb baholagan. Er-xotin o‘rtasida umumiy qiziqishlarning yo‘qligi (19%) va fe‘l-atvordagi qarama-qarshiliklar, dunyoqarash va qadriyatlardagi nomutanosiblik (32%) ham keng tarqalgan sabablar qatorida keltirildi. Bu ko‘rsatkichlar ajralishlarda psixologik mos kelmaslik va kommunikatsiya muammolari muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi⁶.

Jinsiy muammolar ham ajrim sabablaridan biri sifatida qayd etilgan: nikoh munosabatlarida **jinsiy uyg‘unlikning yo‘qligi** 21% respondent tomonidan tilga olinib, juftliklar o‘rtasida intim hayot qoniqarsiz bo‘lsa, oilaning mustahkamligi xavf ostida ekani ko‘rindi. Ayrim hollarda turmush o‘rtoqlardan birining jinoiy qilmishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari (masalan, doimiy nojo‘ya ishlari, qonunni buzishi) ham ajralishga olib kelgan (taxminan 11% javoblar). Farzand ko‘rishga oid kelishmovchiliklar (masalan, er-xotinlardan birining farzandli bo‘lish istagi qondirilmaganligi) 3% atrofida qayd etilgan. Nihoyat, respondentlarning eng katta qismi moliyaviy va moddiy qiyinchiliklarni ajralish sababi sifatida ko‘rsatishgan – javoblarning 35% ulushi shu omil hissasiga to‘g‘ri keldi. Bu raqam oiladagi iqtisodiy barqarorlikning buzilishi (daromad yetishmovchiligi, ishsizlik, uy-joy muammosi va

⁶ <https://www.asiaplustj.info/en/news/tajikistan/society/20201116/number-of-divorces-constantly-growing-in-tajikistan>



b.q.) ko‘plab oilalarni parchalayotganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, so‘rov natijalari ajralishlar ko‘pincha bir nechta omillarning yig‘indisi ekanini, ya‘ni psixologik, ma‘naviy, jinsiy va iqtisodiy muammolar bir-biriga qo‘shilib, oilaning inqiroziga olib kelishini ko‘rsatmoqda⁷.

Ajralishning oqibatlari va pushaymonlik masalasi: Tadqiqotda ishtirokchilar nikohdan ajralgandan keyingi hayotiy tajribalari xususida ham fikr bildirishgan. E‘tiborli jihati, respondentlarning deyarli yarmi (49,1%) ajrim qaroridan umuman pushaymon emasligini aytgan – ya‘ni har ikki kishidan biri oilani saqlab qolmaslik to‘g‘ri qaror bo‘lgan deb hisoblagan. Ayollar orasida bunday qat‘iy fikr bildirganlar nisbatan ko‘proq bo‘lib, ajrashgan ayollarning 51,1 foizi “qarorimdan afsuslanmayman” deb javob bergan, bu ularning ko‘pchiligi uchun ajrashish to‘g‘ri va asoslangan qaror bo‘lganini ko‘rsatadi. Erkaklarda esa bunday qat‘iy fikr biroz kamroq uchraydi – erkak respondentlarning 41,1% qismigina ajrimdan pushaymon emasligini bildirgan, qolgan ko‘pchilik erkaklar turli darajada afsuslanish hissini boshdan kechirgan⁸.

Qiziqarli natija shuki, erkaklar va ayollarning ajrimdan keyingi pushaymonlik hissi vaqt o‘tishi bilan turlicha namoyon bo‘ladi. **Erkaklar orasida pushaymonlik nisbatan kechikib keladi.** Ularning 26,8 foizi ajrashganidan keyin dastlabki 6 oy ichida, 8,9 foizi bir yil ichida pushaymonlikni his qilgan bo‘lsa, ajrimdan 1-2 yil o‘tgach pushaymon bo‘lgan erkaklar ulushi 12,5% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich ayollarga nisbatan ancha yuqori (taqqoslash uchun, shu muddatda pushaymon bo‘lgan ayollar ulushi ancha past), demak erkaklar ko‘pincha ajrimning salbiy jihatlarini va oilaning buzilganidan afsuslanishni kechroq anglay boshlaydilar. Tadqiqot natijalarida ham ta‘kidlanganidek, erkaklarda ajrimning “kechikkan psixologik ta‘siri” kuchliroq bo‘lib, vaqt o‘tgan sari afsuslanish ehtimoli ortib boradi⁹.

Ayollar esa, aksincha, pushaymonlikni ko‘proq darajada darhol boshdan kechiradi. Ajrashgan ayollarning 20,4 foizi dastlabki 6 oy ichida, 14,7 foizi esa 6–12 oy ichida pushaymonlik hissini bildirgan, keyingi yillarda esa ayollarda afsuslanish keskin pasaygan. Ma‘lum bo‘lishicha, ayollar ajrimdan keyingi yangi hayotga erkaklarga qaraganda tezroq moslashishga intiladi – tadqiqot natijasida ularning ajrimdan keyingi hayotga tezroq moslashayotgani qayd etilgan. Ayollarning 58,6 foizi umuman pushaymon emasligini bildirgani ham ko‘p hollarda ular uchun

⁷ Karimova D. Nikoh barqarorligi va ajralishlar sotsiologiyasi. – Toshkent: Fan, 2022. – 215 b.

⁸ <https://khovar.tj/rus/2024/08/v-tadzhikistane-umenshilos-chislo-razvodov>

⁹ <https://www.asiaplustj.info>



ajrim og‘ir muammoli turmushdan chiqish yo‘li bo‘lganini anglatadi. Ayollarda ajralish qarori ko‘pincha uzoq o‘ylangan, asosli bo‘lib, agar turmushda zo‘ravonlik, hurmatsizlik yoki beparvolik kabi jiddiy muammolar bo‘lgan bo‘lsa, ajrim ular uchun to‘g‘ri yechim bo‘lganini vaqt o‘tishi bilan tasdiqlashadi.

Ajrimlarning oldini olish borasida qarashlar: Tadqiqot davomida respondentlarga oilani saqlab qolish bo‘yicha turli taklif va choralar haqida ham savollar berilgan. Ulardan biri – ajralish jarayonida er-xotinga yana bir imkoniyat berish maqsadida rasman ajralishdan avval ma‘lum muddat alohida yashash (ya‘ni “separatsiya”) mexanizmini joriy etish taklifi edi. Javoblar mazkur g‘oya borasida jamiyatda fikrlar turlicha ekanini ko‘rsatdi. Respondentlarning 38,2% qismi agar nikohni bekor qilish jarayonida 1–3 yil davomida vaqtinchalik alohida yashash tartibi joriy qilinganida, ba‘zi oilalar saqlanib qolishi mumkin bo‘lardi deb hisoblagan. Boshqa bir katta guruh – 35,2% respondent – esa bunday mexanizm ham baribir natija bermas edi degan fikrni bildirgan. Ularning fikricha, agar oilada ochiq zo‘ravonlik, xiyonat, mutlaqo ishonchsizlik yoki murosasiz nizolar mavjud bo‘lsa, nikohni bekor qilishni cho‘zish faqat azobni uzaytiradi, barqarorlikni tiklash qiyin. Demak, “separatsiya” chorasi ayrim hollarda foydali bo‘lishi mumkin, ammo oilaviy inqiroz chuqur bo‘lsa, uning ahamiyati cheklanishi mumkin.

Mazkur “separatsiya” institutiga jamoatchilikning munosabati hali to‘liq shakllanmagan. So‘rov natijasida uch nafar respondentdan biri (32,4%) bunday institutni qo‘llab-quvvatlamasligini, ya‘ni ajrimdan avval alohida yashash tartibiga qarshi ekanini aytdi. Ular buni oilaviy muammolar oshib ketgan paytda ajralishni kechiktirish faqat munosabatlarni yanada chigallashtiradi deb izohlashdi. Biroq shunga yaqin ulush – 30,4% kishi – aksincha, qonunchilikda “separatsiya” institutini joriy etishni qo‘llab-quvvatlashini ma‘lum qilgan. Diqqatga sazovor jihat shuki, respondentlarning anchagina qismi (37,1%) bu savolga javob berishda qiynalganini bildirgan, ya‘ni nima deyishni bilmagan. Bu ko‘rsatkich mazkur g‘oya jamiyatda nisbatan yangi ekani, ko‘plab odamlar bu borada yetarlicha ma‘lumotga ega emasligini anglatadi. Xulosa qilish mumkinki, ajralishlarning oldini olish uchun “separatsiya” g‘oyasini joriy etish masalasi hamon bahsli bo‘lib, keng jamoatchilik orasida chuqur muhokamaga muhtoj.

Yuqoridagi natijalar O‘zbekistonda oilaning mustahkamligiga putur yetkazayotgan omillar xilma-xilligi va ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Aksar ajrimlar birgina sababga emas, balki bir-biri bilan aloqador bo‘lgan bir necha omillarga tayanadi – masalan, iqtisodiy qiyinchilik oilada ruhiy zo‘riqish va janjallarni keltirib



chiqaradi, bu esa o'z navbatida mehr-muhabbatning susayishi va xiyonat kabi holatlarga olib borishi mumkin. Tadqiqotimizda aniqlangan eng yuqori ulushli sabab – moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar (35%) – ko'plab chet el tadqiqotlarida ham ajrimlarning asosiy omili sifatida qayd etiladi. Darhaqiqat, oilaning iqtisodiy barqarorligi izdan chiqqanda (daromadning kamayishi, ishsizlik, uy-joy muammolari va hokazo) er-xotin o'rtasidagi munosabatlar taranglashib boradi. Bu holat Rossiya misolida ham kuzatilgan: masalan, Rossiyada so'nggi yillarda ajrimlar rekord darajaga yetib (2023 yilda 683 ming ajrim, har 1000 aholiga 4,7%, bu ko'rsatkich AQSh va YeIda o'rtachasidan ikki baravar yuqori), mutaxassislar buni ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'lashmoqda. Rossiyalik so'rov ishtirokchilari moddiy qiyinchiliklar, ishsizlik, juftlarning deviant xulq-atvori (ichkilikbozlik, giyohvandlik va hokazo) va oilaviy muloqot yetishmovchiligini asosiy ajrim sabablari deb ta'kidlashgan. Bu kuzatuvlar O'zbekiston kontekstidagi topilmalar bilan hamohangdir – bizning tadqiqotimizda ham ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi odatlar, doimiy janjallar va zo'ravonlik muhim ajrim omillari sifatida qayd etildi.

Tadqiqot natijalari oilalarda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning nikohining bekor qilinishiga olib keluvchi asosiy sabablar turli hududlarda turlicha shakllanganini ko'rsatdi. Jumladan, turmush o'rtoqlarning xiyonati oilaviy munosabatlardagi eng muhim nizoli omillardan biri sifatida ajrim holatlarida yetakchi o'rinni egalladi (1-rasm).

Respondentlarning qariyb har to'rt nafaridan bittasi (23,8%) aynan xiyonatni ajrimning asosiy sababi ekanligini ko'rsatdi. O'rtacha ko'rsatkich 23,8 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda bu ulush ancha yuqori ekanligi kuzatildi. Xususan, Sirdaryo viloyatida xiyonat bilan bog'liq ajrimlar 31,7 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 26,7 foizni tashkil etgan. Bu o'z navbatida mazkur hududlarda oilaviy munosabatlarda ishonchning mustahkam emasligi, shaxsiy va ma'naviy mas'uliyatning yetarli darajada emasligini ko'rsatdi.



1.1-rasm. Ajrimga olib kelgan asosiy sabablar

Shu bilan birga, O'zbekistondagi oilaviy ajrimlar sabablarini chuqurroq ijtimoiy-madaniy kontekstda ko'rib chiqish zarur. Bizning natijalar oilaviy nizolar kelib chiqishida uchinchi shaxslar aralashuvi muhim o'rin tutishini ko'rsatdi (xususan, qaynata-qaynona yoki boshqa qarindoshlarning yosh oilaning ishlariga aralashuvi). An'anaviy oila tizimida keng qarindoshlik aloqalari kuchli bo'lgan jamiyatimizda bunday holatlar ko'p uchrashini respondentlar tasdiqlashdi. Bu borada qo'shni davlatlar tajribasi ham qiziqarli: masalan, Qozog'istonda o'tkazilgan so'rovlar natijasi bo'yicha ajrimlarning eng keng tarqalgan sababi er yoki xotinning xiyonati bo'lsa, ikkinchi o'rinda aynan "qaynona-qaynata yoki boshqa qarindoshlarning yosh oilaga aralashuvi" ekani ta'kidlangan. Demak, Markaziy Osiyo jamiyatlariga xos bo'lgan oilaga kattalarning aralashuvi muammosi bizning mamlakatimizda ham ajralishlarga sezilarli hissa qo'shmoqda. Bu munosabatlar tizimini muvozanatlashtirish, yosh oilalarning mustaqilligini ta'minlash masalasi dolzarbdur¹⁰.

Tadqiqotimiz ajralish sabablarida psixologik va shaxslararo muammolar ulushi ham katta ekanini ko'rsatdi: sevgi va mehrning yo'qolishi, o'zaro tushunmovchilik, fe'l-atvordagi farqlar va jinsiy kelishmovchilik kabi omillar juda keng tarqalgan. Bu natija zamonaviy oilaviy munosabatlarda er-xotin o'rtasidagi shaxsiy muvofiqlik naqadar muhimligini anglatadi. An'anaviy jamiyatlarda nikoh ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy ittifoq sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda nikohdan er-xotin o'z shaxsiy baxtini, emotsional qoniqishni kutadi. Agar bu qoniqish ta'minlanmasa, ajrimga yuz

¹⁰ psikolojistanbul.com



tutish hollari ortmoqda. Dunyo miqyosida ham zamonaviy nikohlarning o'ziga xos tomoni shuki, rasmiy ajrashgandan keyin ham er-xotin o'rtasidagi psixologik munosabatlar va tuyg'ular tamomila yo'q bo'lib ketmaydi – bu jarayon cho'zilib, murakkab kechadi. Bizning tadqiqotimizda erkak va ayollarning ajrimdan keyingi psixologik holati borasidagi farqlar bunga yorqin misoldir. Erkaklar ko'pincha ajrimdan keyingi yolg'izlik va yo'qotish hissini kechikib anglashadi, natijada bir necha yildan so'ng pushaymonlik hissi paydo bo'ladi¹¹. Ayollar esa ko'pincha ajrimga qadar oiladagi muammolarni uzoq vaqt boshiidan kechirib, ajrim qaroriga puxta yetib kelishadi va ajrashgach, yangi hayotga moslashishga harakat qiladi – ko'rib turganimizdek, ayollarning aksariyati qaroridan afsuslanmaydi. Bu farqni tushuntiruvchi omillar qatorida erkaklar uchun ajrim natijasida farzandlar bilan aloqaning uzilishi, oiladagi roldan ayrilish kabi kechinmalar muhim bo'lsa, ayollar uchun esa aksincha, ajralish ularni doimiy zo'ravonlik yoki bee'tiborlik muhitidan xalos etgan bo'lishi mumkin.

Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, ajralishlarning oldini olish uchun jamoatchilikda turli yondashuvlar mavjud. Ba'zi respondentlar nikohni bekor qilish jarayonini qiyinlashtirish, masalan, rasmiy ajrimga shoshilmasdan oldin ma'lum muddat alohida yashab ko'rish (separatsiya) tarafdori bo'lsa, yana boshqalar bunga qarshi chiqmoqda. Yosh oilalarni saqlab qolish uchun ayrim ekspertlar nikohning ilk yillarida ajralishni cheklash taklifini ham bildirgan. Bizning so'rovimizda ham respondentlarning uchdan biri "nikoh tuzilganidan keyin birinchi yil davomida uni bekor qilishni taqiqlash" g'oyasini foydali deb baholagan, uchdan biri esa bunga keskin qarshi chiqqan (shaxsning har qanday vaqtda ajrashish huquqi bo'lishi kerak deb hisoblagan). Bu turli yondashuvlar ajrim muammosini hal etishda murosa va balans kerakligini ko'rsatadi. Bir tomondan, oilani asrash uchun maxsus muddat va imkoniyat berish g'oyasi qo'llab-quvvatlanadi, boshqa tomondan esa ortiqcha cheklovlar shaxsiy erkinlikka putur yetkazishi va nizoli vaziyatni cho'zib yuborishi mumkin. Shu bois, ajralishlarning oldini olish strategiyasini ishlab chiqishda jamiyat fikrini chuqur o'rganish va xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olish lozim.

Ta'kidlash joizki, dunyo miqyosida ham oilalar mustahkamligi masalasi har bir jamiyat uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayrim davlatlarda (ayniqsa, sanoati rivojlangan mamlakatlarda) ajrimlar so'nggi o'n yilliklarda oshib bormoqda, boshqalarida esa ma'lum choralar tufayli pasayish kuzatilmoqda. Masalan, Xitoyda

¹¹ <https://journalppw.com/index.php/jpsp/article/download/14274/9250/17440>



2000-yillarda yillik ajrimlar 1 million atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2019 yilda 4,7 millionga yetgan, keyingi yillarda hukumat bir qator choralar bilan bu ko‘rsatkichni pasaytirishga erishdi (2020 yilda 3,73 mln). Xitoy tajribasi ajrimlarning ko‘pchiligi shaharlarda va asosan 30-40 yosh atrofida, kichik farzandli juftliklar o‘rtasida sodir bo‘lishini ko‘rsatdi; ajrimlarga olib keluvchi asosiy omillar esa oiladagi zo‘ravonlik, xiyonat va xarakterlarning to‘qnashuvi ekani ma’lum qilindi. Bu omillar ko‘p jihatdan bizning jamiyatimizga ham xos. Shu bois, turli mamlakatlar tajribasini o‘rganish, nikoh mustahkamligini oshirishga doir samarali mexanizmlarni jalb etish biz uchun foydali bo‘ladi¹².

Yuqoridagi muhokamalar natijasida bir asosiy xulosaga kelish mumkin: ajralishlar sonini kamaytirish va oilalarni mustahkamlash uchun kompleks yondashuv zarur. Ajrim sabablari orasida iqtisodiy, psixologik, ma’naviy va huquqiy omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanini inobatga olib, profilaktika choralarini ham keng ko‘lamda – ta’lim-tarbiyadan tortib, qonunchilikka qadar – ko‘rish kerak. Quyida xulosa sifatida tadqiqot asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarga to‘xtalamiz.

XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Oilalardagi inqirozning psixologik o‘zagi — turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunmovchilik va muntazam janjallardir. Bu holat muloqot kompetensiyalarining yetarlicha shakllanmagani, emotsiyalarni boshqarish va kelishuv mexanizmlarining samarasizligi bilan izohlanadi. Iqtisodiy omillar, xususan moliyaviy qiyinchilik va ishsizlik, ko‘pincha ana shu kommunikatsiya inqirozini tezlashtiruvchi katalizator sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Respondentlarning asosiy qismi muammolarda do‘st va qarindoshlarning maslahatiga tayanadi, psixologik xizmatlar esa cheklangan darajada qo‘llaniladi. Bu holat rasmiy xizmatlarga ishonch pastligi va muammolarni “uy ichida hal qilish”ga moyil madaniy stereotiplar hali ustuvorligini ko‘rsatadi.

3. Shahar joylarida asosiy muammo moliyaviy bosim va yoshlarning nikohga tayyor emasligi bo‘lib, bu urbanizatsiyaning yuqori xarajatlari va mustaqil qaror qabul qilishning mas’uliyatsiz tarzda kechishi bilan bog‘liq. Qishloqda esa ishsizlik, mehnat migratsiyasi va qarindoshlar aralashuvi kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

¹²

https://www.researchgate.net/publication/362712511_Divorcing_Procedures_In_Uzbekistan_And_Its_Territorial_Features?utm_source



4. Viloyatlar kesimida tahlil qator tafovutlarni ko'rsatdi. Navoiy, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida muloqot va anglashuv inqirozi kuchli, Sirdaryo va Toshkent viloyatida moliyaviy qiyinchilik yetakchi, Qoraqalpog'iston va Sirdaryoda ishsizlik keskin, Andijon va Navoiyda qarindoshlar aralashuvi ustuvor, Xorazm va Buxoroda esa migratsiya ko'proq qayd etilgan. Bu holat har bir hudud uchun "bir hudud — bir ustuvor muammo" tamoyilida maxsus dasturlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

5. Faollar qayd etgan aliment masalasi ajrim jarayonidagi yangi va jiddiy omil sifatida namoyon bo'ldi. Ajrim ayollar uchun aliment barqaror daromad manbai sifatida ko'rilyotgani murosaga urinishdan ko'ra ajrimni tanlashga olib kelmoqda. Bu holat aliment tizimini bola manfaatlari uchun adolatli va ikki tomonning teng mas'uliyatini ta'minlovchi mexanizm sifatida qayta ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

6. Respondentlarning salmoqli qismi aliment har ikki tomonga teng tartibda belgilansa, ajrimlar kamayishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu adolat hissini tiklaydi, nizolarning moddiy bir tomonlama xarakteri kamayadi. Shuningdek, aliment to'lovlarini farzand 18 yoshga to'lgunga qadar kafolatlash bolaning uzluksiz ta'minotini ta'minlaydi va ota-onaning teng mas'uliyatini mustahkamlaydi.

7. Ajrimni keltirib chiqaruvchi ichki omillar ta'sirini baholashda xiyonat va addiktiv xatti-harakatlar (alkogol, giyohvandlik) eng kuchli tahdid sifatida qayd etildi. Shuningdek, sha'riy nikoh bilan boshqa oila qurish, farzandsizlik va qaynona-kelin munosabatlari ham oila barqarorligini zaiflashtiradigan omillar sifatida qayd etilmoqda. Demak, psixo-ta'limiy dasturlar, ma'naviy targ'ibot va qarindoshlik munosabatlariga doir madaniy islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

8. Ajrimga sabab bo'luvchi tashqi omillarda moddiy yetishmovchilik, ishsizlik va mehnat bozoridagi cheklovlar oila barqarorligiga eng kuchli tahdidlar sifatida namoyon bo'ldi. Shuningdek, mehnat migratsiyasi, murakkab ish rejimi va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ham oilalar dinamikasiga tizimli bosim ko'rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy siyosat, ijtimoiy himoya va oila siyosati o'rtasida integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

9. Nikohni bekor qilish muddatini uzaytirish imkoniyati bo'lganda ko'plab oilalarda yarashuv ehtimoli yuqori deb baholandi. Bu natija oilalardagi ko'p muammolar chuqur va hal qilmaslikdan ko'ra vaqt va murosaga ehtiyojli ekanini ko'rsatadi. Demak, "alohida yashash rejimi" institutini joriy qilish ajrimlarning ma'lum qismining oldini olishi mumkin.



10. Ajrimlarning oldini olishda asosiy choralar sifatida qarindoshlar aralashuvini cheklash, nikoh oldi tayyorgarlik kurslarini majburiy qilish, huquqiy savodxonlikni oshirish va psixologik xizmatlarni kuchaytirish qayd etildi. Hududlar kesimida esa ayrim viloyatlarda psixologik qo‘llab-quvvatlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etsa, boshqalarida huquqiy va iqtisodiy dasturlar ustuvor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Акрамова Ф. Оилада шахслараро муносабатларнинг оила мустаҳкамлигига таъсири масалалари. Монография. – Тошкент: “Lesson-press”, 2021. – 124 б.
2. Тожиева Ш., Юлдашев М. Оила институти ва унинг ижтимоий барқарорликдаги ўрни. – Тошкент: “Iqtisod-Moliya”, 2022. – 186 б.
3. Inglehart R. Culture Shift in Advanced Industrial Society. – Princeton: Princeton University Press, 1990. – 484 p.
4. Goode W. J. World Revolution and Family Patterns. – New York: Free Press, 1963. – 412 p.
5. Cherlin A. J. The Marriage-Go-Round: The State of Marriage and the Family in America Today. – New York: Vintage, 2012. – 271 p.
6. Journal of Positive School Psychology. Socio-psychological factors of divorce in modern societies. – 2023.
7. ResearchGate. Determinants of Divorce: Comparative Study in Developing Countries. – 2022.
8. International Journal of Academic Research (IJAR). Divorce Rates and Family Transformation in Asia. – 2021.
9. Statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida nikoh va ajralishlar statistik to‘plami (2021–2024). – Toshkent, 2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. Oila barqarorligi bo‘yicha hisobot. – Toshkent, 2024.
11. Isakova N., Tilavoldiyeva M. O‘zbekistonda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi. – Toshkent: “Fan va Taraqqiyot”, 2025.
12. World Bank. World Development Indicators: Marriage and Divorce Trends. – Washington D.C., 2023.
13. United Nations. Demographic Yearbook 2023: Family and Household Characteristics. – New York: UN Publications, 2023.
14. Familydivorcelaw.com. Divorce statistics in European countries: Cultural and legal perspectives. – 2024.
15. Sociostudies.org. Family values and globalization impact on marriage stability in Muslim societies. – 2022.